O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA’LIM AGENTLIGI
KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

# O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN JINOYAT PROTSESSUAL HUQUI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

**Toshkent – 2026**

# O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN JINOYAT PROTSESSUAL HUQUI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

## I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Jinoyat protsessual huquqi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi **572**-sonli Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

## III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

**Jinoyat protsessual huquqi**

1. Jinoyat protsessual huquqi fani predmeti, metodlari. Jinoyat protsessi prinsiplari.
2. Jinoyat protsessi ishtirokchilari, ishtirok etishda monelik qiladigan holatlar, dalillar va isbot, protsessual majburlov choralari
3. Protsessual muddatlar, chiqimlar, surishtiruv, dastlabki tergov, sud muhokamasi

**IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar**

| T/r | Mazmun sohalar | Konstruktlar | Testlar soni |
|---|---|---|---|
| **1** | Jinoyat protsessual huquqi fani predmeti, metodlari. Jinoyat protsessi prinsiplari | Jinoyat protsessual huquqi fani predmeti, metodlari. Jinoyat protsessi prinsiplarini o‘rganish. | 11 ta |
| **2** | Jinoyat protsessi ishtirokchilari, ishtirok etishda monelik qiladigan holatlar, dalillar va isbot, protsessual majburlov choralari | Jinoyat protsessi ishtirokchilari, ishtirok etishda monelik qiladigan holatlar, dalillar va isbot, protsessual majburlov choralari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim | 15 ta |
| **3** | Protsessual muddatlar, chiqimlar, surishtiruv, dastlabki tergov, sud muhokamasi | Protsessual muddatlar va chiqimlar, surishtiruv, dastlabki tergov, sud muhokamasining umumiy shartlari, hukm, ajrim, qarorlarning qonuniyligi haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. | 14 ta |

**V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti**

| T/r | Kognitiv daraja | Izohi | Ulushi (%) |
|---|---|---|---|
| **1.** | **Bilish** | Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish | 20% |
| **2.** | **Qo‘llash** | O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish | 60% |
| **3.** | **Mulohaza qilish** | Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish | 20% |

**VI. Test turlari va taqsimoti**

| T/r | Test turi | Izohi |
|---|---|---|
| **1.** | Y1 | To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test |
| **2.** | Y2 | Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab |

| | | |
|---|---|---|
| | | qiladigan muqobil javobli yopiq test |
| **3.** | Y3 | Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test |
| **4.** | Y4 | Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test |

## VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me’yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Mualliflar jamoasi., Jinoyat protsessual huquqi. [Matn]: Darslik – Toshkent: 2021

***Eslatma:** test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*